

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**TOSHEV ALISHER RAXMATULLAYEVICH**

**KREMNIY ASOSIDAGI QUYOSH ELEMENTLARI PARAMETRLARIGA**  
**IZOVALENT VA NODIR YER ELEMENTLARINING TA'SIRI**

**01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Toshev Alisher Raxmatullayevich**

Kremniy asosidagi quyosh elementlari parametrlariga izovalent va  
nodir yer elementlarining ta'siri ..... 3

**Тошев Алишер Рахматуллаевич**

Влияние изовалентных и редкоземельных элементов на  
параметры солнечных элементов на основе кремния..... 19

**Toshev Alisher Rakhmatullaevich**

Influence of isovalence and rare-earth elements on the parameters of  
solar cells based on silicon..... 37

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 41

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**TOSHEV ALISHER RAXMATULLAYEVICH**

**KREMNIY ASOSIDAGI QUYOSH ELEMENTLARI  
PARAMETRLARIGA IZOVALENT VA NODIR YER  
ELEMENTLARINING TA'SIRI**

**01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida № B2021.2.PhD/T2222 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga ([www.namdtu.uz](http://www.namdtu.uz)) va Ziyonet axborot-ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Egamberdiyev Baxrom Egamberdiyevich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Zaynobiddinov Sirojiddin Zaynobiddinovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, O'zR FA akademigi

**Abduraxmonov Qaxxor Fataxovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston milliy universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 24 oktyabr soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel./faks: (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: info@namdtu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 6-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ \_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 160115, Namangan shahri, I.Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9 oktyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil 9 oktyabrdagi № 6 raqamli reestr bayonnomasi.)

**U.I. Erkaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**A.A. Abdukarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

**N.Yu.Shariboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda, energiya iste'molining kamida 30–35% qayta tiklanadigan manbalar hisobiga ta'minlash uchun muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ularga bo'lgan qiziqishning ortishi, bir tomondan, ekologik nuqtai nazardan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ananaviy yer resurslarining cheklanganligi bilan bog'liqdir. Muqobil energiya manbalari orasida quyosh energiyasining fotoelektrik konvertorlari alohida o'rin tutadi. Biroq, quyosh batareyalarining yuqori narxi yaqin vaqtgacha ularni zarur bo'lmagan hollarda ishlatishga to'sqinlik qildi. Shu jihatdan, izovalent elementlar va nodir yer elementlari yordamida kremniyning elektron zonalari kengligini boshqarish, yorug'likni qayta taqsimlash hamda ushbu kremniy asosidagi panellarning fotoyutilish spektrini kengaytirish natijasida ko'proq quyosh nurlarini elektr energiyasiga aylantirish imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori samarali yarimo'tkazgichli materiallarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda quyosh elementlarining samaradorligini oshirish uchun geteroo'tishli strukturalar olish, nur qaytarish qatlamlarini va ikki tomonlama  $p-n$  o'tishlarini hosil qilish kabi yangi ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, issiqlikka barqaror va radiatsiyaga chidamli material olish uchun izovalent kirishmalar va noyob yer elementlarining optimal kontsentratsiyasini aniqlash, nazorat quyosh elementi va izovalent kirishmali quyosh elementlari parametrlariga konsentratsiyalangan quyosh nurlari va haroratning ta'sirlarini o'rganish, nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining radiatsiyaga turg'unligini tadqiq etish, kremniy asosida nodir yer elementlari bilan legirlangan quyosh elementlari parametrlariga mexanik bosimning ta'sirini aniqlash hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ishlash rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qayta tiklanuvchan va muqobil energiya manbalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilib, xususan quyosh batareyalaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturi yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi PQ-5032-son qarorida "...fizika va ishlab chiqarish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish; ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyat samaradorligini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, sohada energiya sarfini tejash va tannarxini pasaytirish imkonini beruvchi kam energiya sarflaydigan yangi funksional imkoniyatlarga ega yangi yarimo'tkazgichli qurilmalarni yaratish katta ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5032-son 19.03.2021. Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori](#)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4997-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»<sup>2</sup>gi Farmonini va 2010 yil 15 dekabrda PQ – 1442-son «2011–2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»<sup>2</sup>gi, 2017 yil 17 fevraldagi PQ–2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>3</sup>gi va 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son “fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>4</sup>gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining F2 «Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ekstremal sharoitlarda ishlaydigan fotoelementlarni ishlab chiqish bilan xoriyda K. Yamamoto, K. Yoshikawa (Yaponiya), A. Richter, M. Hörteis, J. Benick (Germaniya), V.M. Andreyev, A.G. Kazanskiy (Rossiya), S.K. Lazaruk, A.V. Mudriy (Ukraina), Jicheng Zhou, Yong Tan (Xitoy) lar shug‘ullanishgan. J. Schmidt va boshqalar yangi avlod sanoat kremniyli quyosh elementlarining kirishma atomlari bilan bog‘liq cheklovlar bo‘yicha tadqiqot qilishgan. F. Feldmann, M. Bivuur va boshqalar yuqori samarali n-tipli kremniyli quyosh elementlari uchun passivlashtirilgan orqa kontaktlar yuqori interfeysli passivatsiya sifati va mukammal transport xususiyatlarini o‘rganishgan. C. L. Shilling va uning shogirdlari GaAs geteroo‘tishli quyosh elementlarida fotonlarni qayta ishlash va konsentrlangan yoritishni birlashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O‘zbekistonlik olimlardan akademiklar M.K.Bahodirxonov, S.Z. Zaynobiddinov, M.S.Saidov, R.A.Muminov hamda taniqli fan doktorlari K.P.Abdurahmonov, G.Gulyamov, M.N.Tursunov, Sh.B.Utamurodova va D.E.Nazirovlarning ilmiy maktablarida yarimo‘tkazgichli quyosh elementlarini olishning geteroo‘tishli va legirlash texnologiyalarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa kirishma atomlarining quyosh elementlari parametrlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha M.K.Bahodirxonovning ilmiy maktabida ahamiyatga loyiq ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. S.Z.Zaynobiddinov va D.E.Nazirovlarning ilmiy ishlarida kremniyda nodir yer elementlarining diffuziya texnologiyasini yaratishda keng qamrovli ishlar olib borilgan. R.A.Muminov va M.N.Tursunovlar kremniy quyosh batareyalariga asoslangan fototermal elektr batareyalar yaratish bo‘yicha izlanishlar o‘tkazgan. Shu bilan birga, o‘tkazilgan nazariy va tajriba tadqiqotlarining natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, kremniy asosidagi quyosh elementlari parametrlariga izovalent va nodir yer elementlarining ta’siri yetarli darajada o‘rganilmagan.

---

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-3307879>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-3117025>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5338558>

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F2-50 "Kremniy panjarasida  $A^{II}B^{IV}$  va  $A^{III}B^V$  elementar panjaralarni shakllantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" (2017-2020 yillar) hamda OT-F2-55 "Kirishma atomlarining nanoklasterlarini shakllantirish asosida hajmli strukturali kremniy olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" (2017-2020-yillar) mavzularidagi fundamental loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** izovalent (Ge, Sn) va nodir yer elementlari (Ho, Gd) ni qo'shimcha legirlashning kremniy quyosh elementlari parametrlariga ta'sirini o'rganish, optimal legirlash sharoitlarini aniqlash va quyosh elementlari barqarorligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

issiqlikka barqaror va radiatsiyaga chidamli material olish uchun izovalent kirishmalar va noyob yer elementlarining optimal kontsentratsiyasini aniqlash;

nazorat quyosh elementi va izovalent kirishmali quyosh elementlari parametrlariga konsentratsiyalangan quyosh nuri va haroratni ta'sirlarini tadqiq etish;

nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining radiatsiyaga turg'unligini tadqiq etish;

kremniy asosida nodir yer elementlari bilan legirlangan quyosh elementlari parametrlariga mexanik bosimning ta'sirini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti sifatida** kremniy asosidagi quyosh elementlari, izovalent elementlar (Ge, Sn) bilan ligerlangan kremniy materiallari va nodir yer elementlari (Ho, Gd) qo'shilgan kremniy strukturalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** qalay va germaniyning izovalent aralashmalari bilan legirlangan quyosh elementlari, shuningdek, golmiy va gadoliniyning noyob yer elementlari bilan qo'shilgan quyosh elementlarini ishlab chiqarishning texnologik jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Disertatsiya ishini bajarishda SEM, JEOL JSM 200 LA markali skanerlovchi elektron mikroskop, FSM-1202 markali Furye spektrometri, Ecopia HMS - 3000 markali qurilma asosida Xoll effekti va Van Der Pau usullaridan, UVP-3M vakuum qurulmasidan, JEOL Supper probe JXA-8800 R/RL markali X-nurli mikrozonid tahlil hamda boshqa zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kremniy namunalariga Ge atomlarini diffuziyalashdan so'ng  $T=850$  °C da  $t=3$  soat davomida termik ishlov berish natijasida Si/SiGe/Si mikrogeteroo'tishlarini hosil qiluvchi germaniy klasterlarini shakllantirish usuli ishlab chiqilgan;

germaniy va qalay bilan legirlangan kremniyda optimal legirlash konsentratsiyasi ( $1,5 \cdot 10^{18} \div 1,5 \cdot 10^{20}$  sm<sup>-3</sup>) aniqlanib, natijasida quyosh elementlarining foydali ish koeffitsienti 2,5 % ga oshishi asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilar yashash vaqtining sezilarli darajada uzayishi hisobiga ekanligi aniqlangan.

kremniy sirtida va hajmida  $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$  binar birikmalar hosil qilish orqali taqiqlangan soha kengligi boshqarilib, quyosh nurlarini yutish spektri infraqizil soha tomon kengaytirilishi natijasida FIK 1,5–2 % ga oshishi isbotlangan;

gadolinij va goliy kabi nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining harorat ( $T=30\div 100$  °C) va yuqori radiatsiya ( $10^6\div 10^9$  Rad) sharoitida barqaror ishlashi ta'minlangan;

izovalent va nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining samaradorligi, issiqlik va radiatsiyaga chidamliligini tushuntiruvchi yangi fizik mexanizm taklif qilingan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Izovalent kirishma atomlari va nodir yer elementlari bilan qo'shimcha ravishda legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining samaradorligini oshirish aniqlangan;

Izovalent kirishma atomlari va nodir yer elementlari bilan qo'shimcha legirlash yordamida quyosh elementlari operatsion parametrlarini barqarorlashtirish usuli ishlab chiqilgan;

konsentrlangan quyosh nurlanishida va yuqori radiatsiya sharoitida quyosh elementlarini ishlab chiqarish texnologiyasi shartlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ijobiy sinovdan o'tgan eksperimental usullardan foydalanilganligi va olingan ko'p sonli statistik ahamiyatga ega eksperimental natijalarning yaxshi takrorlanishi, shuningdek, yarimo'tkazgichlarning umumiy qabul qilingan fizik tushunchalaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, monokristalli kremniyning izovalent va nodir yer elementlari bilan hajmiy legirlanishi, ekstremal tashqi ta'sir sharoitida asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash muddatini oshirishga va termodonorlarning hosil bo'lishini kamaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqarilgan quyosh elementlari ishlab chiqarish xarajatlarining kamligi bilan yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish samaradorligi jihatidan mavjud quyosh elementlaridan kam emas va ba'zi hollarda ularning samaradorligi mavjud bo'lgan analoglardan ancha yuqoriligi aniqlangan. Ular issiqlik va radiatsiyaga qarshiligi yuqori bo'lib, bu ularning xizmat qilish muddatini sezilarli darajada uzaytirilishi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Kremniy asosidagi quyosh elementlari parametrlariga izovalent va nodir yer elementlarining ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Ge va Sn krishmalari bilan ( $1,5 \cdot 10^{18} \div 1,5 \cdot 10^{20}$   $\text{sm}^{-3}$  konsentratsiyali) kremniyning legirlashning optimal texnologik rejimidan foydalanish FOTON aksiyadorlik jamiyatida joriy etildi va qo'llanildi. («UZELTEXSANOAT» aksiyadorlik jamiyatining 03 mart 2023 yildagi 04-3/267-son ma'lumotnomasi). Natijada, yarimo'tkazgich monokristallar asosida ishlab chiqarilgan yarimo'tkazgich asboblarni elektrik parametrlarini barqarorlashtirish hamda noasosiy zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini uzaytirish imkonini bergan.

Dissertatsiya ishidan olingan ilmiy natijalar sinovdan o'tkazildi va 2012-2016 yillarda F-2-41 "Har xil tabiatdagi materiallarga (metallar, yarimo'tkazgichlar va dielektriklar) ionlarni implantatsiya qilishda changlanish, atomlarni kiritish, nano o'lchamdagi tuzilmalar va kuchlanishga ega qatlamlarini hosil qilish jarayonlarini nazariy va eksperimental tadqiq etish" nomli fundamental loyihasini bajarishda foydalanildi. (TDTU ning 2021yil 13 sentabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada, nano o'lchamli tuzilishga ega, barqaror elektrofizik parametrlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgich materialini olish imkonini berdi, bu esa aralashma atomlarini kiritish jarayonlarini eksperimental tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ionlarni yarimo'tkazgichga implantatsiya qilish jarayonida nano o'lchamli tuzilmalar va kuchlanish qatlamlarini shakllantirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 14 ta halqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola jumladan 6 tasi scopus jurnallarda va 3 tasi respublika jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, umumiy xulosa va ilovalardan iborat. Ilmiy ish 118 bet mashinkada yozilgan matn, 16 rasm, 5 jadval, 97 nomdagi adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismi** mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi, bu O'zbekiston Respublikasida ham, butun dunyoda ham noan'anaviy muqobil energiya manbalarini rivojlantirish va ulardan foydalanishning dolzarb muammolari bilan bog'liq. Olingan natijalarning yangiligi va amaliy ahamiyati keltiriladi. Dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi va uning aprotatsiyasi aks ettirilgan.

**Birinchi bob** barqaror parametrlarga ega kremniy asosidagi samarali quyosh elementlarini ishlab chiqish va yaratish bo'yicha qilingan ishlarning adabiyot sharhiga bag'ishlangan. Kremniy asosli quyosh elementlarini radiatsiyaga chidamli va barqaror issiqlikka dosh beradigan usullari o'rganildi. Kremniy kristall panjarasining asosiy qismidagi IVK va NYE xatti-harakatlari va ularning kremniyning elektrofizik parametrlariga ta'siri tahlil qilindi.


Adabiyotlarni ko'rib chiqishdan ma'lum bo'lishicha, IVK va NYE ning kremniyga kiritilishi uning elektr va fotoelektrik xususiyatlarining zarur kompleksini shakllantirishning istiqbolli usullaridan biridir. Istiqbolli va hali to'liq o'rganilmagan masala - bu turli xil aralashmalar bilan kremniy asosli QE larini qo'shimcha legirlash, kremniy asosli QE parametrlarining samaradorligi va barqarorligini oshirish usulidir.

Keltirilgan eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, IVK va NYE bilan legirlash yo'li orqali ifloslantiruvchi elementlarning bir xilda getterlash mumkin.

Ko'rib o'tilgan bir qancha ilmiy ishlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kremniy asosli turli xil aralashmalar bilan legirlangan quyosh elementlarini qo'shimcha IVK va NYE lar orqali legirlash, uning parametrlarining barqarorligini oshirish imkoniyatini beradi. Qo'shimcha legirlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq, u kremniy asosidagi quyosh elementlarining parametrlarini yaxshilash va barqarorlashtirish imkonini beradi.

**Ikkinchi bobda** yarimo'tkazgichli plastinkalarni asosiy parametrlarini aniqlashning texnologik usullari va sanoat texnologiyasiga asoslangan kremniy quyosh elementlarini ishlab chiqarish texnologiyasi keltirilgan.

Quyosh radiatsiyasi simulyatori va avtomatlashtirilgan VAX hisoblagichni yaratish va ishlab chiqarish bosqichlari. Yoritish lampasi va korrektorlovchi filtrga asosida quyosh simulyatori yaratildi, 1-rasm. Qat'iy parallel yo'nalishli nurlanishni olish uchun sferik shakldagi qaytaruvchi reflektor va ikkita yassi-qavariq linzalardan tashkil topgan kondansatordan foydalanildi.



**1-rasm. VAX o'lchov asbobining blok sxemasi**

Simulyatorida ishlatiladigan chiroq 300 Vt quvvatga valari "kvazi-tekis" qizdiruvchi spiralga ega, bu esa ma'lum zichlikdagi tok oqimini olish va sinab ko'rilayotgan fotoelement sirtidagi uncha katta bo'lmagan turli xil zichlikdagi nurlanish oqimlarini olish imkonini beradi. Quyosh simulyatori strukturaviy jihatdan, suyuqlik filtrlı portativ yoritgich shaklida qilingan. Yoritish lampasi, shisha filtr, linzalar va qaytaruvchi reflektor ventilyator yordamida havoni sovutish orqali sovutiladi. Sozlanuvchi to'g'rilagich reflektor va stabilizator alohida o'rnatiladi va simlar bilan ulanadi.

Quyosh nurlanishining turli oqimlarida fotokonvertorning volt amperli o'lchov xususiyatlarini o'lchash uchun biz o'lchov vositalarini o'lchanayotgan haqiqiy qiymatlarga ta'sirini istisno qilishga imkon beruvchi sxemani ishlab chiqdik. Qurilma tabiiy sharoitda tushayotgan radiatsiya intensivligini quyosh

elementlari xususiyatlariga, ta'sir qilish vaqtiga va haroratga bog'liqligini o'rganish imkonini beradi. Hisoblagichning ishlashi o'lchanayotgan quyosh elementi orqali tok oqimini o'tkazish va undagi kuchlanishning pasayishini o'lchashga asoslangan. Bunday holda, oqim o'z yo'nalishini o'zgartirishi mumkin, bu qorong'u va yorug'lik shohlarning xam oldinga, xam teskari oqimli volt – amper xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi.

**Uchinchi bobda** izovalent aralashmalar va noyob yer elementlarining kremniy asosidagi quyosh elementlari parametrlariga ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan. IVK va NYE bilan qo'shimcha ravishda legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining samaradorligini oshirish imkoniyati ko'rsatilgan. IVK, shuningdek, nodir yer elementlarining tayyor quyosh elementlari parametrlariga ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatdiki, eng samarali aralashmalar  $N_{Ge} \approx 1,5 \cdot 10^{20} \text{ cm}^{-3}$  konsentratsiyasi bo'lgan Ge va  $N_{No} \approx 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ , konsentratsiyasi bo'lgan Ho dir. Bu kremniy monokristalini o'sitirish davrida kiritilgan.

Bunday holda, ma'lumki, panjaradagi begona atom yaqinidagi bo'sh joyning hosil bo'lish energiyasi  $\Delta H'_s$ , ga kamayadi, uning qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:


$$\Delta H'_s \approx \frac{6\pi(r_s - r'_s)^2 r'_s}{Z(1 + \alpha)\chi'} \quad (1)$$

$$\alpha = \frac{(1 + p)\chi r'_s}{2(1 - p)\chi' r'_s} \quad (2)$$


Bu yerda  $\Delta r'_s$  va  $r'_s$ - aralashma atomlari va asosiy atomning kovalent radiuslari,  $\chi'$  va  $\chi$  asosiy va aralashmali moddalarning siqilish qobiliyati, r-Puasson koeffitsiyenti Si, Z-koordinatsiya soni. Formulalardan ko'rinib turibdiki,  $\Delta r'_s$  va  $r'_s$ , dagi farq qanchalik katta bo'lsa  $\Delta H'_s$ , shuncha katta bo'ladi - ya'ni vakansiya hosil bo'lish energiyasi shunchalik kamayadi.

Aniqlanishicha, yuqori samarali va yaxshi takrorlanuvchi parametrlarga ega quyosh elementlarini yaratish uchun  $\rho=0,5 \text{ Om}\cdot\text{sm}$  va  $N_{Ge} \approx 1,5 \cdot 10^{20} \text{ sm}^{-3}$  konsentratsiyali Si<Ge> optimal material hisoblanadi. Optimal konsentratsiyali germaniy bilan legirlangan kremniy asosli quyosh elementlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular barqaror ish parametrlariga ega va samaradorlikni o'rtacha 2.1-2.5 % ga oshiradi.

2-rasmda olingan namunalarning sirtga yaqin mintaqasida germaniy atomlarining tarqalishi ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, 1 mkm chuqurlikgacha, sirtidagi germaniy atomlarining tarkibi kremniy atomlariga qaraganda ko'proq bo'lib uzluksiz  $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$  qattiq eritmali  $x > 0,5$  ga ega bo'lgan varizon struktura xosil bo'ladi, keyin germaniy atomlarining tarkibi keskin kamayadi va  $d > 3 \text{ mkm}$  da u shunchalik kamayadiki, qurilmaning sezgirliги cheklanganligi sababli, ularning miqdorini aniqlash qiyin. Diffuziya bosqichlari orasidagi isitish tezligini nazorat qilish va diffuziya jarayonida bosqichlarning parametrlarini tanlash orqali kerakli qalinlik va tarkibdagi  $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$  qattiq eritmasini olish mumkin, ya'ni. 0 dan 1 gacha bo'lgan x qiymatiga ega bo'lgan doimiy  $\text{Si}_{1-x}\text{Ge}_x$  qattiq eritmali kremniyning varizon strukturali kremniyini olish mumkin.



**2-rasm. Gyermaniy atomlarining sirt ostida tarqalishi**



**3-rasm.  $T=850\text{ }^{\circ}\text{C}$  da 3 soat davomida qizdirilganda Ge bilan legirlangan kremniyning sirtini fotosurati**


Aniqlanishicha, olingan namunalarni  $700\div 1050\text{ }^{\circ}\text{C}$  haroratda qo‘shimcha qizdirish orqali kremniy panjarasida Si/SiGe/Si mikrogetero - birikmalarini hosil qilish imkonini beradi. Bunday holda, qo‘shimcha termo qizdirishning o‘ziga xos harorati va vaqti muhim rol o‘ynaydi. Si/SiGe/Si mikrogetero - birikmalarini hosil qilish uchun  $850\text{ }^{\circ}\text{C}$  haroratda 3 soat davomida termo qizdirish optimal xolat ekanligi eksperimental tarzda aniqlangan. 3-rasmda kremniyning sirtga yaqin mintaqasida germaniy atomlarining qayta taqsimlanishi va  $850\text{ }^{\circ}\text{C}$  haroratda qo‘shimcha qizdirishdan keyin germaniy klasterlarining shakllanishi ko‘rsatilgan. Eksperimental natijalar shuni ko‘rsatadiki, germaniy atomlarining tuzilishi, konsentratsiyasi va klasterlar o‘lchamlarini sirt va qalinligi bo‘yicha nazorat qilish mumkin.

Aniqlanishicha,  $N_{\text{Ge}} \approx 1,5 \cdot 10^{20}\text{ sm}^{-3}$ , konsentratsiyali germaniy bilan legirlangan kremniy monokristalini  $850\text{ }^{\circ}\text{C}$  da qizdirish shunga olib keladiki, unda Si/SiGe/Si, ichki mikrogetero o‘tishlar xosil bo‘lib, kremniy asosida shu tariqa legirlangan quyosh elementlari samaradorligini qo‘shimcha yana 2,5 % ga oshiradi.

Shulardan ko‘rish mumkinki, Si<No> asosidagi QE lar Ho, bo‘lmagan QE larga qaraganda 1,5÷1,6 % ortiqcha  $I_{kz}$  ga ega ekanligi ko‘rsatilgan va QE parametrlarining takrorlanishi ham yaxshilanadi.


Aniqlanishicha,  $N_{\text{No}} \approx 10^{17}\text{ sm}^{-3}$  konsentratsiyasida an’anaviylarga qaraganda 1,5÷1,6 % ko‘proq samaradorlikka ega fotoelement olish mumkin.

**To‘rtinchi bobda** ishlab chiqilgan quyosh elementlarining parametrlariga tashqi ta’sirlarning ta’sirini o‘rganish natijalari keltirilgan. Qo‘shimcha germaniy atomlarining kremniyga  $T=450\text{ }^{\circ}\text{C}$  da qizdirish orqali kiritilishi natijasida termodonorlarning hosil bo‘lishi va to‘planish tezligini sezilarli darajada kamaytirishi ko‘rsatilgan.




**4-rasm. 450 °C da termodorlar hosil bo'lish kinetikasi**


Namunalar : 1 – Si<Sn>  $N_{Sn}=2 \cdot 10^{18} \text{ cm}^{-3}$ ;  
 2 – Si<Sn>  $N_{Sn}=5 \cdot 10^{17} \text{ cm}^{-3}$ ;  
 3 – Si<P>; 4 – Si<Ge>  $N_{Ge}=1,5 \cdot 10^{19} \text{ cm}^{-3}$ ;  
 5 – Si<Ge>  $N_{Ge}=6 \cdot 10^{19} \text{ cm}^{-3}$ ;  
 6 – Si<Ge>  $N_{Ge}=9 \cdot 10^{19} \text{ cm}^{-3}$



**5-rasm. Qizdirish temperaturasi nisbatan namunaning nisbiy qarshiligini o'zgarishi (qizdirish vaqti 10 soat). 1 – Si<P>, 2 – Si<Sn>, 3 – Si<Ge>**



**6-rasm. Termik qizdirish haroratiga qarab zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining nisbiy o'zgarishi. Tozalash vaqti  $t=10$  soat. 1 – Si<Ho>; 2 – Si<Gd>; 3 – Si<P>**



**7-rasm. Materialning qizdirish vaqtidan boshlab qarshilikni nisbiy o'zgarishi,  $T=450$  °C. 1 – Si<P>; 2 – Si<Gd>  $N_{Gd}=5 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ ; 3 – Si<Ho>,  $N_{Ho}=6 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$**

Qiziqarli natijalar germaniy bilan legirlangan kremniy namunalarida olingan (4-rasm, egri chiziqlar 4,5,6). Bunda biz tarkibida  $N_{Ge}=1,5 \cdot 10^{19} \text{ sm}^{-3}$ ,  $6 \cdot 10^{19} \text{ sm}^{-3}$  va  $9 \cdot 10^{19} \text{ sm}^{-3}$  konsentratsiyali germaniy mavjud bo'lgan kremniydan foydalandik.

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu holda TD generatsiya hosil bo'lishi va ularning to'planishi nazorat namunalariga qaraganda sezilarli darajada kamroq bo'lib, ya'ni termodonorlarni susaytirish ta'siri yuzaga keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ta'sir qanchalik kuchli bo'lsa, materialning asosiy qismida germaniy atomlarining konsentratsiyasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shunday qilib, statistik jihatdan ishonchli eksperimental natijalar asosida Si<Ge> namunalarida TD konsentratsiyasi Si<Sn>, namunalariga qaraganda deyarli 1,5 marta kichik, 1) nazorat namunalariga qaraganda ma'lum tartibda past ekanligi aniqlandi. 5-rasmda qizdirish haroratiga qarab namunalarni qarshiligining nisbiy o'zgarishi ko'rsatilgan (qizdirish vaqti 10 soat). 1 – Si<P>, 2 – Si<Sn>, 3 – Si<Ge>. 10 soat ichida termik qizdirish haroratiga qarab zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasining nisbiy o'zgarishi 6-rasmda ko'rsatilgan. 7-rasmda  $T= 450 \text{ }^\circ\text{C}$  da qizdirilganda material qarshiligining nisbiy o'zgarishi ko'rsatilgan.

#### 1-jadval

**Si<Ge> namunalardagi asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini qizdirish haroratiga bog'liqligi,  $N_{Ge} \approx 1,5 \cdot 10^{20} \text{ sm}^{-3}$ , Si<Ho>,  $N_{Ho} = 2 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ , Si<P>,  $N_P = 4 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$**

Namunalar	Qizdirish temperaturasi, $^\circ\text{C}$				Qizdirish vaqti, soat
	1000	1100	1150	1200	
	$\tau$ , mks	$\tau$ , mks	$\tau$ , mks	$\tau$ , mks	
Si<Ge>	7- 20	8-22	9-25	6-20	5
Si<Ge>	10-25	12-20	10-25	9-18	5
Si<Ge>	15-20	10-25	7-20	10-21	5
Si<Ge>	12-25	8-20	12-20	7-25	5
Si<Ge>	12-30	9-18	10-25	12-20	5
Si<Ho>	15-20	20-30	25-40	25-35	5
Si<Ho>	17-25	17-35	20-35	20-40	5
Si<Ho>	16-20	14-25	25-40	20-40	5
Si<Ho>	15-25	16-30	20-40	25-40	5
Si<Ho>	10-20	20-30	22-38	20-40	5
Si<P>	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	5
Si<P>	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	5
Si<P>	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	1 mks ga yaqinroq	5

Germaniy atomlari konsentratsiyasining oshishi bilan termodonorlarni bostirish samaradorligi oshadi. Qalay bilan legirlangan kremniyda teskari ta'sir kuzatiladi, ya'ni qalay termodonorlarning hosil bo'lishini va to'planishini sezilarli darajada kamayadi.


Davomiyligi 20 soatgacha bo'lgan yuqori haroratda ( $1000 \div 1250$  °C) ishlov berishning Si<Ge> va Si<Ho> xossalriga ta'siri o'rganildi. Ko'rsatilganki, IVK (Ge,Sn) mavjud bo'lganda,  $\tau$  va  $\rho$  qizdirish vaqti va haroratidan qat'iy nazar, yetarlicha barqaror bo'lib qoladi.

Ge - bilan legirlangan namunalarda asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilar yashash vaqtining barqarorligi alohida e'tiborga loyiqdir. 1-jadvalda Si<Ge> namunalardagi asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilar yashash vaqtining qizdirish haroratiga bog'liqligi ko'rsatilgan.


Si<Ge> namunalardagi asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini qizdirish haroratiga bog'liqligi, bu yerda  $N_{Ge} \approx 1,5 \cdot 10^{20} \text{ sm}^{-3}$  bo'lganda Si<Ho>,  $N_{Ho} = 2 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ , bo'lganda Si<P>,  $N_P = 4 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ .

Ma'lum bo'lishicha, kremniyni noyob yer elementlari (Gd, Ho) bilan legirlaganda  $T = 450$  °C da qizdirish paytida TD hosil bo'lishini va to'planishini sezilarli darajada bostiradi. Si<Ho> namunalarda TD ning hosil bo'lish va to'planish tezligi nazorat namunalarga qaraganda 5-10 baravar kam.  $T=1000 \div 1200$  °C yuqori haroratli qizdirish jarayonida goliy Ho tomlari kremniyda muhim rol o'ynashi ko'rsatilgan.

Quyosh elementlarida qisqa tutashuv tokining konsentratsiyalangan quyosh nurlariga bog'liqligi 8-rasmda ko'rsatilgan. Kremniy asosidagi quyosh elementlarining maksimal chiqish quvvatining konsentratsiyalangan quyosh nurlaniga bog'liqligi 9-rasmda ko'rsatilgan.




**8-rasm. QE dagi qisqa tutashuv bilan konsentrlangan quyosh nurlari orasidagi bog'liklik**  
1 – Si<P>; 2 – Si<P,Sn>, 3 – Si<P,Ge>



**9-rasm. Kremniy asosli QE maksimal chiqish kuchini konsentrlangan quyosh nurlariga bog'likligi.**  
1 – Si<P>; 2 – Si<P,Sn>, 3 – Si<P,Ge>

Aniqlanishicha, bunday sharoitda barcha quyosh elementlarida  $I_{q.t.}$ ,  $U_{s.Y.}$  kamayishi kuzatiladi. Biroq, eng kichik pasayish Si<Ge> asosidagi quyosh elementlarida kuzatiladi. Si<Ge> asosida quyosh elementlari parametrlarining o'zgarishi nazorat qiluvchi quyosh elementlariga qaraganda deyarli  $2,8 \div 3$  baravar kam. 10-rasmda Si<Ge>, Si<Ho> va nazorat namunalari uchun asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning ishlash muddatining  $T=1000\text{ }^{\circ}\text{C}$  da qizdirish vaqtiga bog'liqligi ko'rsatilgan.



**10-rasm. Si<Ge>, Si<Ho> va nazorat namunalari uchun asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqti nisbiy o'zgarishlarining  $T=1000\text{ }^{\circ}\text{C}$  da qizdirish vaqtiga bog'liqligi 1 – Si<P>; 2 – Si<P,Ge>; 3 – Si<P,Ho>**

Rasmdan ko'rinib turibdiki, issiqlik bilan ishlov berishdan oldin barcha turdagi materiallar uchun asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqti bir xil bo'lgan (32-16 mks), nazorat namunalari asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqti issiqlik bilan ishlov berish paytida 1-1,5 soatda 1 mks gacha keskin kamayadi va keyinchalik kamayish asta-sekin davom etadi.

Termik qizdirish oxirida  $\tau$  bir mikrosekunddan kamroq bo'ladi. Shu bilan birga, Si<Ge> namunalari  $\tau$  qizdirish vaqti nisbatan sekin kamayadi va maksimal pasayish  $1,8 \div 2$  martani tashkil qiladi. Si<Ho> namunalari asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqti barcha issiqlik bilan ishlov berish vaqtlari uchun eksperimental xato oralig'ida deyarli doimiy bo'lib qoladi. Shunday qilib, germaniy va goliy bilan legirlangan kremniy asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini ancha barqarorlashtiradi, deb aytishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, kremniydagi kislorodning harakatini belgilaydigan mexanizmlar bo'yicha yagona fikr mavjud emas, garchi termo donorlarning hosil bo'lish nazariyasi Kayzer modeliga asoslansa xam, bu yerda past haroratda qizdirish kislorodning elektr faolligini o'zgarishiga olib kelsa xam, bu kremniy

panjarasidagi kislorod holatining o'zgarishi natijasidir. Elektr faol bo'lishi uchun kislorod atomi kremniy panjarasi tugunidagi kremniy o'rnini egallashi kerak ya'ni, kremniy atomi bilan almashinadi. Odatda, kislorod kremniyda oraliq pozitsiyalarni egallab, guruhlarni hosil qiladi<sup>5</sup>:





Aynan shu guruhlarning assimetrik tebranishlari to'lqin uzunligi 9,1 mkm bo'lgan infraqizil assimilyasiya chizig'ining paydo bo'lishiga olib keladi. 8,4 mkm to'lqin uzunligidagi yutilish zonasi SiO<sub>2</sub> presipitatlari bilan aniqlanadi. Kislorodning bu ikki holati – bog'lanish orasi va presipitata (ya'ni, SiO<sub>2</sub> shaklidagi kremniy bilan muvozanatli birikmada) - kristalda kislorod mavjudligining ikkita oddiy shakliga to'g'ri kelganligi sababli, kristaldagi kislorod holatini aniqlashda infraqizil yutilishni o'lchash usulidan samarali foydalanish mumkin.

Kislorodning oraliq bog'lanish shakldan presipitata shakliga o'tishi bir nechta oraliq holatlarning shakllanishi bilan sodir bo'lishi mumkin:




(oraliq bog'lanish)                      (presipitat)

Ushbu oraliq holatlarning ba'zilar elektr faol bo'lishi mumkin, ya'ni kristallga donor holatlarini beradi. Shu bilan birga, donorning shakllanishi quyidagi reaksiyalar bo'yicha kislorod va vakansiyalarning bevosita o'zaro ta'siri natijasi bo'lgan modellar ham mavjud:




bu yerda  $\text{O}_i$  – oraliq bog'lanishli kislorod;  $\text{O}_{\text{Si}}$  - panjara joyidagi kislorod atomi;  $V_{\text{c.y.}}$  - tugun kislorodi yonida joylashgan bo'sh joy (c.y. - qo'shni tugun).

Birinchi reaksiya oraliq bog'lanishdagi kislorodni tugun kislorodiga aylantiradi. Ikkinchi reaksiyada bu tugun kislorod atomi eng yaqin qo'shni bo'sh joy ( $V_{\text{c.y.}}$ ), bilan birlashadi, kislorod esa bo'sh joyga o'zining valentlik elektronlaridan birini “beradi” va quyidagi “reaksiya” ga muvofiq termodonor bo'lib xizmat qilishi mumkin. :



Donorlarning shakllanishi, ushbu modelga ko'ra, umumiy shaklda quyidagicha ifodalanishi mumkin:



bu yerda  $\text{O}_{\text{Si}}$  kremniy bo'shligi yoki ba'zi metallar qabul qiluvchi aralashmaning atomi, masalan,  $\text{Ca}_{\text{Si}}$   $\text{Al}_{\text{Si}}$  va boshqalar.

Demak,  $\text{Si}\langle\text{Ho}\rangle$  asosidagi QE larini nurlanishga chidamliligi legirlanmaganlarinikidan oshadi va bu QE larning parametrlarini deformatsiyaga nisbatan barqaror qiladi.

<sup>5</sup> Zaynobilidov S.Z. Kremniyda chuqur energetik sathlar hosil bo'lishining fizik tamoyillari. – T.: FAN, 1984. – 160 b.

O'sish jarayonida kremniy Ge va Ho kirishma atomlari bilan legirlash optimal texnologik yechim hisoblanadi. Bu usul nodir yer elementlari qo'shilmagan elementlar bilan solishtirganda, texnologiyani murakkablashtirmasdan va qo'shimcha xarajatlarsiz, issiqlik barqarorligi va radiatsiyaga chidamliligiga ega bo'lgan yanada samarali quyosh elementlarini olish imkonini beradi.

### XULOSA

1. Izovalent kirishma atomlari va nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy past haroratlarda eroziyasiz diffuziya texnologiyasi ishlab chiqildi.

Ushbu texnologiya qo'shimcha energiya sarfini talab qilmaydi va ishlab chiqarish jarayonini murakkablashtirmasdan, takrorlanuvchi diffuziya imkoniyatini yaratadi.

2. Germaniy bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining foydali ish koeffitsienti (FIK) kovalent radiuslari va bu kirishmalarning konsentratsiyalarining farqi hisobiga nazorat namunalariga nisbatan 2,1–2,5 % ga, golmiy bilan legirlangan namunalarda esa 1,5–1,6 % ga yuqori ekani aniqlandi.

3. Germaniy va golmiy bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarida asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqti ( $\tau$ ) hamda solishtirma qarshilik ( $\rho$ ) yuqori haroratli (1000–1250 °C) va uzoq muddatli (10–20 soat) qizdirishlardan keyin ham termik barqarorligi saqlanib qoldi. Ayniqsa, Si<Ge> asosidagi quyosh elementlarining elektrofizik parametrlaridagi degradatsiya darajasi nazorat namunalariga qaraganda qariyb uch barobar kam ekanligi aniqlandi.

4. Golmiy bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlari yuqori radiatsion muhit va mexanik deformatsiya ta'sirida ham o'z elektrofizik parametrlarini barqaror saqlashi aniqlandi.

5. Izovalent kirishma atomlari va nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy asosidagi quyosh elementlarining samaradorligi, termik barqarorligi va radiatsion chidamliligini tushuntiruvchi fizik mexanizmlar taklif qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ТОШЕВ АЛИШЕР РАХМАТУЛЛАЕВИЧ**

**ВЛИЯНИЕ ИЗОВАЛЕНТНЫХ И РЕДКОЗЕМЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ НА  
ПАРАМЕТРЫ СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ НА ОСНОВЕ КРЕМНИЯ**

**01.04.10 – физика полупроводников**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Наманган – 2025**

**Тема диссертации доктора философии наук (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2021.2.PhD/T2222.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.namdtu.uz](http://www.namdtu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Эгамбердиев Бахром Эгамбердиевич**  
доктор физико-математических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Зайнобиддинов Сирожиддин Зайнобиддинович**  
доктор физико-математических наук, академик АН РУз

**Абдурахмонов Каххор Фатахович**  
Доктор физико-математических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Национальный университет Узбекистана**

Защита диссертации состоится 24 октября 2025 года в 11:00 часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/30.11.2022.FM/T/66/04 при Наманганском государственном техническом университете. (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Ислама Каримова - 12. Наманганский государственный технический университет, здание 6, 1-й этаж, кабинет Научного совета, Тел/факс: (99869) 225-10-07; Факс: (99869) 225-76-75. e-mail: info@namdtu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрирована за №\_\_ ) по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Ислама Каримова - 12, Тел. (99869) 228-76-70.

Автореферат диссертации разослан 9 октября 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 6 от 9 октября 2025 года).

**У.И.Эркабоев**  
председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н., профессор

**А.А.Абдукаримов**  
ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
PhD, доцент

**Н.Ю.Шарибоев**  
председатель научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

### **Актуальность и востребованность темы диссертации.**

В мире потребность в альтернативных и возобновляемых источниках энергии неуклонно возрастает, чтобы обеспечить не менее 30–35% энергопотребления за счёт возобновляемых ресурсов. Рост интереса к ним связан, с одной стороны, с экологическими соображениями, а с другой — с ограниченностью традиционных земельных ресурсов. Среди альтернативных источников энергии особое место занимают фотоэлектрические преобразователи солнечной энергии. Однако высокая стоимость солнечных батарей до недавнего времени препятствовала их использованию в случаях, когда это не являлось необходимым. В этом отношении важное значение приобретает создание высокоэффективных полупроводниковых материалов за счёт управления шириной электронных зон кремния с помощью изовалентных и редкоземельных элементов, перераспределения света и расширения спектра фотопоглощения на основе таких кремниевых панелей, что позволяет преобразовывать большее количество солнечного излучения в электрическую энергию.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений для повышения эффективности солнечных элементов, таких как создание гетеропереходных структур, отражающих слоёв и двусторонних p-n переходов. В этом направлении особое внимание уделяется определению оптимальной концентрации изовалентных примесей и редкоземельных элементов для получения термостойких и радиационно-устойчивых материалов, изучению влияния концентрированного солнечного излучения и температуры на параметры контрольного солнечного элемента и солнечных элементов с изовалентными примесями, исследованию радиационной стойкости солнечных элементов на основе кремния, легированного редкоземельными элементами, определению влияния механического давления на параметры солнечных элементов на основе кремния, легированного редкоземельными элементами, а также обоснованию технологического процесса, параметров и режимов их работы.

В нашей Республике уделяется особое внимание использованию возобновляемых и альтернативных источников энергии, в частности, эффективному применению солнечных батарей. В рамках государственной программы реализуются широкомасштабные мероприятия, уже достигнуты определённые результаты. В постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5032 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области физики»<sup>1</sup> определены важные задачи, такие как: «...обеспечение тесной взаимосвязи между научными исследованиями в области физики и производством, расширение масштабов научных работ, направленных на решение проблем в отраслях экономики;

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/3107042>

повышение эффективности научно-исследовательской и практической деятельности, а также результативности научных исследований». В реализации этих задач особое научное значение приобретает создание новых полупроводниковых устройств с функциональными возможностями, обеспечивающих снижение энергопотребления и себестоимости за счёт экономии энергии.

Настоящее диссертационное исследование в определённой мере служит выполнению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП–4997 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановлении от 15 декабря 2010 года № ПП–1442 «О приоритетных направлениях развития промышленности Республики Узбекистан в 2011–2015 годах»<sup>2</sup>, Постановлении от 17 февраля 2017 года № ПП–2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательских работ»<sup>3</sup>, Постановлении от 19 марта 2021 года № ПП–5032 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области физики»<sup>4</sup>, а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

